

# Ko'p beriladigan savollar bo'yicha ma'lumotlar

## ***Mahalla ichki yo'llarini qurish, ta'mirlash, shag'allashtirish, asfaltlash qanday amalga oshiriladi?***

**Javob:** Ichki avtomobil yo'llarini ta'mirlash bo'yicha mahalla faollari tomonidan Openbudget.uz axborot portaliga tegishli mavsumlarda takliflar kiritilishi, takliflar ma'qullangandan so'ng ushbu hududda yashovchi fuqarolar tomonidan berilgan ovozlar natijasiga ko'ra shahar uchun ajratiladigan limitlarni taqsimlashda eng yuqori ovoz to'plab, g'olib bo'lgan takliflarga zarur mablag'lar ajratilishi belgilangan.

O'z navbatida, Openbudget.uz axborot portali orqali mahalla faollari bilan kelishgan holda, ichki avtomobil yo'llarini ta'mirlash taklifini kiritishi maqsadga muvofiq.

## ***Yer maydoni (uchastkasi) ajratish so'rovlari qanday amalga oshiriladi?***

**Javob:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2022 yil 14 fevralda "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi 71-sonli qaror nizom talablari asosida jismoniy va yuridik shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo maydonchasida elektron auksion orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan

## ***Uy-joy bilan ta'minlash so'rovi qanday amalga oshiriladi?***

**Javob:** Uy-joy berilishi tartibiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 28 noyabrdagi PF-5886-sonli farmoniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5 fevraldagi 56-sonli qarorining 1-ilovasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to'g'risidagi Nizomning 3-bobida, qarz oluvchilarning muvofiqlik mezonlari belgilangan. Mazkur bobning, 16-bandida qarz oluvchilar quyidagi muvofiqlik mezonlariga mos bo'lishi lozimligi va b) qismida doimiy

ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan yohud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga, shuningdek ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda to'lash uchun yetarli bo'lgan qonun hujjatlarida taqiqlanmagan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa daromad manbaiga ega bo'lishi ko'rsatilib o'tilgan.

***Alohida uyning turar joy mulkdori shirkati tarkibidan chiqsa ushbu uyga shirkat mablag'laridan ulush beriladimi?***

Ha, bu uyning turar-joy mulkdorlaridan ta'mirlashga yig'ilgan mablag'lardan beriladi. Agarda alohida ko'p kvartirali uy turar joy mulkdorlari Shirkat tarkibidan chiqqan taqdirda turar joy mulkdorlari tomonidan ushbu uyni mukammal ta'mirlash uchun to'plagan maqsadli jamg'armasi hisobiga shakllanadigan pul mablag'lari belgilangan tartibda yangi tuzilayotgan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga berilishi kerak.

***Agar joy mulkdori umumiy mol-mulkiga ko'rsatilayotgan xizmatdan qoniqmasa majburiy badallarni to'lamaslikga huquqi bormi?***

Yo'q, agarda mulkdor uyga ko'rsatilayotgan xizmatdan qoniqmasa, u bu masalani shirkatning boshqaruvini, boshqaruv raisini saylash hamda ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish vakolatiga ega shirkat a'zolari umumiy yig'ilishiga kiritishi kerak.

***Vanna xonasidagi batareya 24-soat mobaynida ishlashi kerak mi? Isitish batareyasi bizlarda faqat isitish mavsumida ishlaydi?***

To'g'ri nomi-radiator. U isitish uchun mo'ljallangan. Issiqlik bilan ta'minlash shartnomasiga ko'ra issiq suv bilan ta'minlash yil davomida uzluksiz 24-soat mobaynida ta'minlanishi kerak. Isitish ehtiyojlari faqat isitish mavsumida ta'minlanadi. Isitish yetkazib beruvchi tashkilot iste'molchiga xizmat ko'rsatish sifati o'rnatilgan normativlarga mos kelishiga javob beradi: Isitish bo'yicha xona harorati isitish mavsumida 20°S kam bo'lmasligi kerak (SHNK 2.08.01-05 "Jilbye zdaniya" qoidasiga ko'ra). Issiq suv ta'minoti bo'yicha O'zbekiston sharoitidagi markaziy issiq suv ta'minoti tizimining nazorati to'g'risidagi sanitar qoidalarga ko'ra (SHNK 2.08.01-05 "Jilbye zdaniya" qoidasiga ko'ra) suv taqsimlash joyidagi issiq suv harorati 50-75°S gacha bo'lishi kerak.

***Men yashayotgan kvartiradan o`tgan sovuq suv quvurini o`z xisobimdan almashtirdim. Shirkat men qilgan sarf-xarajatlarni kommunal xizmat to`lovlariga o`tkazishni istamayapti. Siz qanday maslaxat berasiz.***

Siz avvalom bor eski suv quvurlarini almashtirishingiz haqida shirkat bilan kelishib olishingiz, keyin ta'mirlash ishlar oxirida qilingan ishlarni hujjatlashtirish ularga taqdim etishingiz lozim edi. Shuningdek xujjatga quvurlarni sotib olganligingiz va bajarilgan ishlar uchun to`lagan pulingizni tasdiqlovchi chekni ilova qilinadi. "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari to`g`risida"gi Qonunning 30-moddasida ayrim hollarda shirkat a'zolarining umumiy yig`ilishi joy mulkdori tomonidan majburiy badallarning bir qismini to`lashning pul shaklini uning umumiy xarajatlardagi ishtirokining boshqa turlariga almashtirish to`g`risida qaror qabul qilishi mumkinligi ko`rsatib o`tilgan.